



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMLIGI

210100, Navoiy sh., Islom Karimov sh.k 77 A, tel: (79)229-62-06, 229-62-80, e-mail: navoi@exat.uz, info@navoi.uz

6 yanvar 2025 yil.

12-12/156-son

Navoiy viloyati hokimligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi 2024 yil

HISOBOTI

Navoiy viloyati hokimligida korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan bir qator aloqa kanallari mavjud bo'lib, jumladan facebook ijtimoiy tarmog'ida www.facebook.com/groups/navoiantikormurojaat/ aloqa kanali, telegram messengerida <https://t.me/Navoiantikormurojaat> aloqa kanali, hokimlikning rasmiy veb-saytida [www.https://navoi.uz](https://navoi.uz) aloqa kanali, instagram sahifasida <https://www.instagram.com/antikormurojaat/> aloqa kanali va youtube sahifasida <https://www.youtube.com/@antikorruptsiyanavoiy1524> kabi aloqa kanallari mavjud. Ushbu tashkil etilgan aloqa kanallariga viloyatda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, tadbirlar, korupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan materiallar, targ'ibot tadbirlari va shu kabi boshqa ma'lumotlar joylashtirib borilmoqda.

Shuningdek viloyat hokimligida korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan nazorat sho'basining **79-229-62-53, 78-770-31-11** va qisqa **1066** raqamli "**ISHONCH TELEFONI**" tashkil etilgan.

Joriy yilda korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali jami 4 ta murojaat kelib tushgan bo'lib mazkur murojaatlardan 3 tasi tasdig'ini topmagan. 1 nafar fuqaroning murojaati yuzasidan o'rganish natijalari ilova qilingan holda qonuniy ko'rib chiqish uchun prokuratura organlariga yuborilgan.

Jumladan;

Xatirchi tumani, Olmazor MFYda yashovchi fuqaro S.O 2024 yil avgust oyida hokimiyat organlari hodimlari hatti-xarakatidan norozi bo'lib murojaat yo'llagan. Mazkur holat bo'yicha murojaat muallifiga tushuntirish berilganidan so'ng biror bir e'tirozi yo'qligini bildirgan.

Navoiy shahar, "Humo" MFYda yashovchi fuqaro V.A va Navbahor tumani "Yangirabot" mahallasida yashovchi fuqaro B.Blar bir xil mazmundagi ya'ni mahallada kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash bo'yicha xokim yordamchilari tomonidan imtiyozli kredit ajratib berilishida tanish bilishchilikka yo'q qo'yilayotganligidan norozi bo'lib murojaat yo'llagan. Murojaat yuzasidan o'rganish olib borilganida mazkur holat o'z tasdig'ini topmadi.

2024 yil 30 sentyabr kuni Navoiy shahar Lermantov ko'chasida joylashgan "T" MCHJ vakili X.F tomonidan murojaat kelib tushgan. Mazkur murojaat yuzasidan ishchi guruh tuzilib urganish olib borildi. O'r ganish natijasi bo'yicha to'plangan xujjatlar qonuniy ko'rib chiqish uchun viloyat prokuraturasiga taqdim etildi.

**Korrupsiyaga qarshi ichki
nazorat qilish sho'basi mudiri**



F.Xasanov